


TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

ANDIJON VILOYATIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral *)


Viloyatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qarorlari mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Kelgusida ular jahon bozorida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladilar.

Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar borasida, 2020-yil yanvar-fevral oyi hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 452,5 million dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport 57,8 mln. AQSh dollar (o'sish sur'ati - 111,0 %), import esa 394,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi (o'sish sur'ati - 113,6 %). Tashqi savdo balansi 336,9 mln. AQSh dollari miqdoridagi passiv qoldiq qayd etildi.









*Dastlabki ma'lumotlar asosida

2020-yil yanvar-fevral oyi yakunida Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 5 920,1 mln. AQSh. doll., eksport 2 631,3 mln. AQSh. doll., import esa 3 288,8 mln. AQSh. doll.ni tashkil etgan. Viloyatining respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 7,6 %, eksportda 2,2 %, importda esa 12,0 % ni tashkil qildi.



Viloyatimiz dunyoning 54 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshiradi. Dunyo mamlakatlari orasida uning tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Koreya Respublikasi (58,4 %), Xitoy (11,0 %), Rossiya Federatsiyasi (8,4 %), Qirg'iziston (5,5 %), Tailand (4,1 %), Turkiya (3,2 %), Qozog'iston (1,2 %) Braziliya (1,0 %) va boshqa davlatlar 7,3 %.






2020-yil yanvar-fevral oyi yakunlariga ko‘ra viloyatning tashqi savdo aylanmasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmadi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan tashqi savdoda eksport ulushi 13,3 foiz darajaga pasaydi.

2020-yil yanvar-fevral oyi natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlari bilan savdo hajmi 32,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi va O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 15,1 % dan ortdi.

Viloyatning qo‘shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi o‘zaro savdo-sotiqqa ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoning qariyb 16,5 foizi qo‘shni davlatlar tomonidan amalga oshiriladi, shundan eksportning 72,0 foizi va importning 8,4 foizi qo‘shni davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oyida viloyatning MDH va boshqa davlatlarning tashqi savdo aylanmasida ulushi, foizda



Hisobot davrida viloyatning tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari orasida Rossiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iziston va Ozarbayjon davlatlari, tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 16,5 foizni






tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Janubiy Koreya, Xitoy, Tailand, Turkiya, AQSH, Braziliya, Hindiston va Italiya davlatlari hisoblanadi, ularning ulushi 83,5 foizni tashkil qiladi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi










(2020-yilning yanvar-fevral, foizda)



Viloyat tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi

Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi mln AQSH dollar;	O'tgan yilga nisbatan foiz hisobida	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, %
	264,4	100,7	58,4
	49,6	110,3	11,0
	38,0	114,9	8,4



	Qirg'iziston	24,8	146,1	5,5
	Tayland	18,4	1360,0	4,1
	Turkiya	14,4	297,3	3,2
	Qozog'iston	5,6	91,7	1,2
	Braziliya	4,4	147,3	1,0
	Germaniya	4,0	192,0	0,9
	Ozarbayjon	3,4	1802,2	0,8
	AQSH	3,2	142,0	0,7
	Chexiya	2,8	132,9	0,6

Viloyat tashqi savdo aylanmasining qit'alar
bo'yicha taqsimlanishi

Qit'lar nomi	2020-yil yanvar-fevral (mln. AQSH dollar)		Tashqi savdo aylanmasi	
	Ekspart	Import	O'tgan yilga nisbatan foiz hisobida	Jamiga nisbatan foizda
Jami:	57,8	394,7	139,4	100,0
Yevropa	12,9	59,3	137,9	16,0
Osiyo	44,8	326,2	109,0	82,0
Amerika	0,1	9,2	141,1	2,0
Afrika	0,0	0,0	12,4	0,0




2020-yil yanvar-fevral oyida chet el sarmoyasi ishtirokidagi
korxonalarining asosiy ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlar nomi	Ro'yxatga olingan (birlik)	Ishlayapti (birlik)	Vaqtincha ishlamayapti (birlik)	Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH doll.)	Eksport (mln. AQSH doll.)	Import (mln. AQSH doll.)
Viloyat bo'yicha:	331	315	16	50429,1	13243,2	37185,9
Andijon sh.	129	127	2	34715,1	4830,1	29885,0
Shahrixon	27	25	2	315,9	45,4	270,5
Andijon	27	24	3	511,4	444,5	67,0
Asaka	17	17	-	503,5	7,8	495,7
Oltinko'l	19	18	1	2976,8	2288,4	688,4
Qo'rg'ontepa	10	8	2	7,0	-	7,0
Baliqchi	9	8	1	-	-	-
Marhamat	14	13	1	567,2	567,2	-
Izboskan	9	8	1	1408,1	1408,1	-
Buloqboshi	12	11	1	129,0	-	129,0
Xonobod sh.	14	14	-	8380,4	2848,2	5532,2
Jalaquduq	10	8	2	68,7	-	68,7
Paxtaobod	7	7	-	-	-	-
Xo'jaobod	14	14	-	529,6	487,2	42,3
Ulug'nor	5	5	-	-	-	-
Bo'ston	8	8	-	316,5	316,5	-

Viloyatda chet el sarmoyasi ishtirokida jami 331 ta korxonalar mavjud bo'lib, shundan, joriy yilning shu davriga kelib 315 ta korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda, qolgan 16 ta korxonalar vaqtincha faoliyatini to'xtatgan. Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalarining tashqi savdo aylanmasi jami 50,4 mln. AQSH dollar, viloyat tashqi savdosidagi ulushi 11,1 % ni tashkil qildi. Eksport 13,2 mln. AQSH dollar, import 37,2 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.



**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi foizda
(2020-yil yanvar-fevral)**



2020-yilning yanvar-fevral oyida viloyat eksportining hajmi 57,8 mln. AQSh dollari tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 %). Eksport qilinadigan mahsulotlar ulushi 98,9 % ni tashkil etdi, shundan tekstil va trikotaj mahsulotlari - 60,4 %, mashina va uskunalar 16,7 %, oziq-ovqat mahsulotlari - 4,2 %, qora va rangli metallar - 1,5 %, kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar - 0,6 %.



**MDH va boshqa xorijiy davlatlarning
eksport tarkibi
(2020-yil yanvar-fevral)**

Eksport tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %
JAMI:	57 809,0	111,0	100,0	41 645,2	154,4	100,0	16 163,84	64,4	100,0
Paxta tolasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	2 422,3	28,6	4,1	2 362,3	39,1	5,7	60,0	2,5	0,4
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	359,0	74,1	0,6	310,2	73,0	0,7	48,80	81,5	0,3
qora va rangli metallar	837,4	427,2	1,5	837,4	427,2	2,0	0,08	-	0,0
mashina va uskunalar	9 645,7	312,3	16,7	9 284,6	449,3	22,3	361,2	35,3	2,2
tekstil va trikotaj mahsulotlari	34 937,0	97,4	60,4	19 604,1	135,4	47,1	15332,9	71,7	94,9
Xizmatlar	655,5	125,3	1,1	548,2	182,9	1,3	107,4	48,0	0,7
Boshqalar	8 951,5	256,8	15,5	8 698,0	250,8	20,9	253,5	1 405,6	1,6

**Eksport tuzilmasi dinamikasi
(2020-yil yanvar-fevral)**

Eksport tarkibi	2018 y.	2019 y.	2020 y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
Paxta tolasi	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,4	16,3	4,1
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	0,7	0,8	0,6
qora va rangli metallar	0,3	0,2	1,5
mashina va uskunalar	46,6	1,0	16,7
tekstil va trikotaj mahsulotlari	40,3	77,1	60,4
Xizmatlar	1,8	0,6	1,1
Boshqalar	1,9	4,0	15,5



So‘nggi uch yil ichida eksport tarkibini diversifikatsiyalash dinamikasi kuzatilmoqda. Shunday qilib, tekstil va trikotaj mahsulotlari ulushi 20,1 foiz darajaga o‘tdi va 60,4 %, qora metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar - 1,2 % va boshqalar – 13,6 % ni tashkil etdi. Qolgan pozitsiyalar eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari, mashina va uskunalar ulushining sezilarli darajada o‘sishi hisobiga pasayganligini ko‘rsatmoqda.

Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksporti dinamikasi


(yanvar-fevral, ming AQSh doll.)

Mahsulotlar nomi	2019 y.	2020 y.
Kalava ip va gazlamalar	22568,3	14499,7
Tayyor tekstil kiyimlar	9515,9	15017,6
Tekstil matolar	294,3	0,0
Tikuvchilik mahsulotlari	384,1	294,8
Boshqa tekstil tayyor mahsulotlari	230,5	449,9
Maxsus gazlamalar	36,8	0,5
Ipak va shoyi gazlamalar	1689,6	2203,6
Gilamlar	0,9	0,0
Paxta, kiygiz va noto‘qima matolar	1131,1	244,9

2020-yil yanvar-fevral oyida tekstil va trikotaj mahsulotlarini eksport hajmi 34,9 mln. AQSh dollarni tashkil etdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 97,4 foiz, bu umumiy eksportning 60,4 foiziga yetdi. Tekstil va trikotaj mahsulotlari eksportining asosiy qismi paxta tolasi (25,1 %), shuningdek tayyor trikotaj va kiyimlar (26,0%) hisoblanadi.



**Tovar va xizmatlarning import tarkibi,
jamiga nisbatan ulushi foizda
(2020-yil yanvar-fevral)**



2020-yil yanvar-fevral oyida viloyatning import hajmi 394,7 million dollarni tashkil etdi (o'sish sur'ati - 13,9 foiz). Uning tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunalar, shu jumladan extiyot qismlar va butlovchi qismlar (67,7 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar (11,0 %), shuningdek qora va rangli metallar (8,3 %) e'gallaydi.

**MDH va boshqa xorijiy davlatlarning import tarkibi
(2020-yil yanvar-fevral)**

Import tarkibi	Jami			MDH			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %	Ming AQSh. doll.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %	Jamiga nisbatan ulushi %
JAMI:	394 748,4	113,6	100,0	32 982,91	104,5	100,0	361 765,44	114,5	100,0

kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar

43 412,7 102,9 11,0 1 462,2 52,6 4,4 41950,45 106,5 11,6



qora va rangli metallar	32 885,1	105,2	8,3	20 390,0	103,5	61,8	12 495,1	108,0	3,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	1 333,5	71,7	0,3	837,9	56,9	2,5	495,5	127,6	0,1
mashina va uskunalar	267 286,4	113,7	67,7	7 051,4	179,3	21,4	260 235,1	112,5	71,9
Oziq-ovqat mahsulotlari	2 290,3	127,6	0,6	1 189,4	144,2	3,6	1 100,9	113,4	0,3
Xizmatlar	29 588,0	150,3	7,5	117,0	61,6	0,4	29 470,9	151,2	8,1
Boshqalar	17 952,5	115,9	4,5	1 934,9	72,5	5,9	16 017,6	124,9	4,4

Import tuzilmasi dinamikasi (2020-yil yanvar-fevral)

Import tarkibi	2018 y.	2019 y.	2020 y.
JAMI:	100,0	100,0	100,0
kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar	8,9	12,1	11,0
qora va rangli metallar	6,9	9,0	8,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,7	0,5	0,3
mashina va uskunalar	67,3	67,7	67,7
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	0,5	0,6
Xizmatlar	6,0	5,7	7,5
Boshqalar	4,9	4,5	4,5

Mashina va uskunalar dinamikasi

(yanvar-fevral, ming.AQSh.doll.)

Tarkib	2019 y.	2020 y.
Transport vositalari va butlovchi qismlar	173 508,1	178 893,0
Uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari	33 305,2	49 570,4
Elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari	14 054,9	18 413,5



Tarkib	2019 y.	2020 y.
Boshqalar	14 306,4	24 199,7

2020-yil yanvar-fevral oyida mashina va uskunarlar importi 267,3 mln. AQSh. doll. ga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,7 % ga o'sgan. Viloyatning jami importidagi ulushi 67,7 %, Uning tarkibida asosiy ulushni transport vositalari va butlovchi qismlar (66,9%), uskunarlar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari (17,2%), shuningdek, elektr dastgoxlar va jixozlar, ularning qismlari (6,8%) hamda boshqalar (9,1%) ni e'gallaydi.

Viloyat eksportining asosini tekstil va trikotaj mahsulotlari, mashina va uskunarlar tashkil etgan. Joriy yilning yanvar oyida 315 ta eksport qiluvchi korxonalar mavjud bo'lib, ular tomonidan 35 ta uzoq va yaqin mamlakatlarga eksport amalga oshirilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**

(74) 228-30-57